



Tadqiqot.uz

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

**SOHA LINGVISTIKASI: TILSHUNOSLIK
VA TIBBIYOT INTEGRATSIYASINING
MUAMMOLARI, YECHIMLARI HAMDA
ISTIQBOLLARI**

**10-NOYABR
2021**

BUXORO, UZBEKISTAN

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SOHA LINGVISTIKASI:
TILSHUNOSLIK VA TIBBIYOT
INTEGRATSIYASINING
MUAMMOLARI, YECHIMLARI
HAMDA ISTIQBOLLARI
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
materiallari

Buxoro, 10-noyabr, 2021-yil

© Tadqiqot.uz

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

BUKHARA STATE UNIVERSITY

**LINGUISTICS OF DIFFERENT
FIELDS:
PROBLEMS, SOLUTIONS AND
PROSPECTS OF LINGUISTICS
AND MEDICAL INTEGRATION**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE**

Bukhara, November 10, 2021

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО
СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ
УЗБЕКИСТАН**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

**ОТРАСЛЕВАЯ ЛИНГВИСТИКА:
ЗАДАЧИ, РЕШЕНИЯ И
ПЕРСПЕКТИВЫ
ЛИНГВИСТИКИ И
МЕДИЦИНСКОЙ ИНТЕГРАЦИИ**

**МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ**

Бухара, 10 ноября 2021 г.

© Tadqiqot.uz

“Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.–Buxoro: Tadqiqot.uz, 2021.

Buxoro davlat universiteti O`zbekiston Respublikasi oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi, O`zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi, O`zbekiston Respublikasi sog`liqni saqlash vazirligi, O`zbekiston Respublikasi tadqiqot.uz. markazi, Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti bilan hamkorlikda “Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o`tkazdi.

O`zbek, rus, ingliz tillaridagi mazkur konferensiya materiallarida tilshunoslikda til, shaxs, jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari va innovatsion g`oyalar tizimini shakllantirish istiqbollari; o`zbek tili tibbiyot leksikografiyasi va terminologiyasini rivojlantirish ijtimoiy zaruriyat; tibbiyot ta`limida lingvokulturologiya va psixolingvistikaning ahamiyati hamda dolzarbligi; tibbiy birliklarning lingvopoetik tadqiqi; amaliy filologiyani rivojlantirish kabi mavzular doirasida mulohaza yuritilgan.

Mas`ul muharrir

**filologiya fanlari doktori,
professor Abuzalova M.Q.**

Taqrizchilar

**filologiya fanlari nomzodi,
dotsent Nazarova S.A.**

**filologiya fanlari nomzodi,
dotsent G`aybullayeva N.I.**

**tibbiyot fanlari doktori (PhD),
dotsent Ixtiyarova G.A.**

**To`plovchi va nashrga
tayyorlovchi**

**pedagogika fanlari nomzodi,
professor Yuldasheva D.N.**

Mazkur to`plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni, statistik ma`lumotlar hamda bildirilgan fikr hamda mulohazalarga mualliflarning o`zlari mas`uldirlar.

© Buxoro, Tadqiqot.uz, 2021

тўжырым жасау да оңай емес. Қ.Жұбановтың сөзтанымдық көзқарасын талдау барысында оның еңбектерінде қазіргі қазақ тілінің лексикологиясы саласындағы категориялардың барлығы да қарастырылмаса да, осы саланың басты нысаны семасиология, ономасиология, арнаулы сөздер, кәсіби сөздер, кірме сөздер, көнерген сөздер, т.б. мәселелері жөнінде алғашқы ой-толғамдары берілгенін атап көрсетеміз.

Әдебиет тізімі:

- 1.Миров М.О. Қ.Жұбановтың лингвистикалық танымдары. – Ақтөбе, 2014. - 200 б.
- 2 Жұбанов Қ. Шығармаларының толық жинағы. - Ақтөбе: «Жұбанов университеті» баспасы, 2019. - 584 б.
3. Манкеева Ж. Қазақ тіліндегі байырғы түбірлерді жаңғырту.- Алматы:Арыс, 2010.-325 б.
- 4.Ескеева М. Орхон, Енисей, Талас ескерткіштері және қазіргі қыпшақ тілдеріндегі моносиллабтардың құрылымдық ерекшеліктері: Докт.дисс.автореф.. Алматы, 2007. -58 б.
5. Тектіғұл Ж.О. Қ.Жұбанов қазақ тіліндегі өлі түбірлердің морфологиялық сипаты жайында// «Жұбанов тағылымы-VIII: Қазақстан түркі өркениеті мен тарихы тоғысында» атты халықаралық ғылыми конференция материалдары. – Ақтөбе, 2014.-186-188 б.
- 6.Жұбанов Қ. Қазақ тілі жөніндегі зерттеулер. - Алматы: Ғылым, 1999.-581 б.
7. Иманғазина А.Ә. Құдайберген Жұбанов және қазақ тіл білімі мәселелері // «Жұбанов тағылымы-IX» дәстүрлі халықаралық ғылыми конференция материалдары. –Ақтөбе: Қ. Жұбанов атындағы Ақтөбе ӨМУ, 2017.-146-149 б.
- 8.Бектұров Ш.К Қазақ тілі. Лексика, фонетика, морфология, синтаксис. - Алматы: Атамұра, 2006. -336 б.

Tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasi (AQSHdagi ayrim universitetlar misolida)

Adilova Saodat Abdurahimovna*

10.5281/zenodo.5685022

Resume. The article discusses the issues of integrating linguistics and medicine while teaching Uzbek in some US universities. The information about special language courses for medical professionals is also given in this article.

Keywords: *integration, linguistics, medicine, Uzbek language, terminology, euphemism, equivalent*

O‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotidagi va dunyo miqyosidagi nufuzini oshirishga qaratilayotgan e’tibor, tilimizning qo‘llanilish ko‘lamini yanada kengaytirish yo‘lida amalga oshirilayotgan ishlar mutaxassislar oldiga yangidan-

* Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Umumiy tilshunoslik kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi, AQSH Arizona davlat universiteti Kritik tillar instituti dotsenti.
saodat.adilova@gmail.com

yangi vazifalarni qo‘ymoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi hamda 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari va so‘nggi yillarda qabul qilingan bir qator hukumat qarorlari boshqa yo‘nalishlar sirasida tibbiyot sohasida ham davlat tili imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilishini taqozo etadi. Shu ma’nodan mazkur ilmiy-amaliy konferensiyaning mavzusi o‘ta muhim va dolzarbdir.

Umuman olganda, fanlararo integratsiya, sohalararo integratsiya doimiy ravishda mutaxassislar diqqat markazida bo‘lib kelgan. Biroq bugungi kunda global kommunikatsiyaning kengayishi, madaniyatlararo munosabatlarning jadallik bilan o‘rnatilib borishi, inson hayotining barcha jabhalariga texnologiyalarning shiddat bilan kirib borishi turli fanlar doirasida, jumladan, tilshunoslik va tibbiyot kesimida yangidan-yangi yo‘nalishlarning paydo bo‘lishiga olib kelyapti. Psixiatrik lingvistika, bio, eko, fizio, antropologik lingvistika, artikulyatsion va perseptiv fonetika, klinik lingvistika kabi yo‘nalishlarning vujudga kelgani fikrimizning dalilidir [Палютина, 2013: 104]. Ayniqsa, “tibbiyot lingvistikasi” deb nomlangan yo‘nalish har ikki soha vakillarida ham katta qiziqish uyg‘otishi tabiiy. Aniq ta’riflarning hozircha mavjud emasligi tufayli tibbiyot lingvistikasi deganda tibbiyot olamida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan lingvistik tadqiqotlar, fizik-fiziologik rivojlanishdagi nuqsonlarning nutqda aks etishi masalalari bilan shug‘ullanuvchi soha, tilning pragmatik vazifasining bajarilishini tadqiq qiluvchi yo‘nalish kabilar tushuniladi. Albatta, bu kabi tor doiragi masalalar yuzasidan chuqur tadqiqotlar olib boruvchi mutaxassislar mavjud muammo va yechimlarni aniq belgilab beradilar. Biz esa masalaga ikkinchi til o‘qitish metodikasi, nutq madaniyati, kompyuter lingvistikasi bo‘yicha mutaxassis sifatida fikr bildirmoqchimiz. Nazarimizda, tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasi quyidagi masalalarni qamrab oladi:

- tibbiyotga oid terminologik tizimni tadqiq qilish;
- tibbiyot atamalarini xalq shevalaridagi so‘zlar, sinonimlar, ibora va evfemizmlar bilan boyitish;
- bir necha tilli bosma va elektron shakldagi terminologik lug‘atlarni yaratish, ularni takomillashtirish;
- ingliz, rus va boshqa tillardagi tibbiyotga oid matnlarni tarjima qilish, tibbiy terminologiyani qiyosiy tadqiq qilish;
- tibbiyot yo‘nalishidagi OTMlarda o‘zbek tilini sohaga yo‘naltirib o‘qitish;
- tibbiyot sohasidagi kasbiy muloqotning o‘ziga xosligi, lisoniy (verbal) aloqa jarayoni, zamonaviy shifokorning kommunikativ va sotsiolingvistik kompetentligini tadqiq etish bo‘yicha ilmiy-amaliy loyihalar doirasida faoliyat yuritish;
- xalqaro hamkorlik doirasida tashrif buyuradigan xorijiy mutaxassislar hamda xorijda malaka oshiradigan o‘zbekistonlik tibbiyot xodimlari uchun maxsus til kurslarini tashkil qilish va hokazo.

Ko‘rinib turganidek, tilshunoslik va tibbiyot sohalarining vakillari hamkorlikda bajarishlari mumkin bo‘lgan ishlarning ko‘lami keng va globallashuv sharoitida u yanada kengayib boradi.

So‘nggi yillarda xorijiy davlat vakillarining O‘zbekistonga, o‘zbek tili va madaniyatiga bo‘lgan qiziqishi tobora ortib bormoqda. Uzoq yillar davomida maqola muallifi tomonidan TDPUDA faoliyat yuritish bilan bir qatorda O‘zbekistonga turli maqsadlarda tashrif buyurgan xorijiy fuqarolarga o‘zbek tili o‘rgatib kelinadi. Shuningdek, so‘nggi o‘n yil davomida yoz oylarida AQSHning Arizona davlat universitetida o‘zbek tili va madaniyatidan darslar ham olib boriladi.

Aslida, har bir mamlakatda chet tillarni o‘qitishning yillar davomida shakllangan va sinalgan o‘ziga xos metodlari mavjud bo‘ladi. Bunda mamlakatning geosiyosiy holati, boshqa davlatlar bilan munosabati, kun konyukturasi, o‘qitish sharoitlari, milliy mentalitet, o‘rganilayotgan tillarning davlat tiliga yaqinlik darajasi va amaliy ahamiyati kabi omillar hisobga olinadi. Xo‘sh, yoshi, kasbi, kelib chiqishi turlicha bo‘lgan amerikaliklarni o‘zga tillarni o‘rganishga nima majbur qiladi? Avvalo, mamlakatda har xil tilda so‘zlashuvchi immigrantlarning ko‘pligi. Ikkinchidan, bir nechta chet tilni bilish kishilarning liberalligidan dalolat beradi, ular nafaqat o‘zining tili va madaniyatini biladilar, balki o‘zga millat vakillariga ham hurmat bilan qaraydilar. Umuman olganda, har bir talabaning chet tilni, xususan, o‘zbek tilini o‘rganishdan o‘z maqsadi bor: shaxsiy qiziqish, ya'ni o‘zbek tilini yoqtirgani tufayli, xalqaro biznes bilan bog‘liq tashkilotga ishga kirish uchun Markaziy Osiyo tillaridan birini bilishi kerak bo‘lgani uchun, “Til ta’limiga oid kompyuter resurslari” deb nomlangan laboratoriyadagi faoliyatiga kerak bo‘lgani uchun, ilmiy-tadqiqot ishi aynan yurtimiz tarixi yoki madaniyatimiz bilan bog‘liq bo‘lgani sababli, yoki O‘zbekistondagi tarixiy obidalarni ko‘rishni orzu qilgani va o‘zbek xalqining tilini bilish boshqa turkiy xalqlarning tilini va madaniyatini o‘rganishga asos (baza) bo‘la olishi tufayli va hokazo. Bu kabi sabab va maqsadlar esa tilni intensiv ravishda o‘rganish uchun kuchli motivatsiya bo‘lib xizmat qila oladi.

AQSHda olib boriladigan intensiv kurslarimizda asosan maqola muallifi tomonidan yaratilgan elektron majmualar, autentik va o‘quv-autentik materiallardan, Nigora Azimovaning [Azimova, 2010: 334-358] o‘zbek tili darsliklaridan hamda G.Ergasheva va MO‘TUL jamoasi tomonidan yaratilgan resurslardan foydalanib kelamiz. Shu bilan birga, yurtimizda so‘nggi yillarda nashr etilayotgan turli qo‘llanma, internet resurslaridan, radio, televideniye materiallaridan ham foydalaniladi. Har bir darsda til sathlariaro integratsiya ta'minlanadi, leksik, morfologik, sintaktik birliklar o‘rganiladi hamda mavzu doirasida o‘zbek madaniyatiga oid ma'lumotlar ham berib boriladi. Masalan, N.Azimovaning darsligida 15-bo‘lim “Nima bezovta qilyapti?” deb nomlanadi. Mazkur bo‘limning materialini o‘rganish jarayonida talabalar o‘zbek tilidagi anatomiya va tibbiyotga oid 38ta so‘z va birikmalar bilan tanishadilar. Ular qatorida tana a'zolari konseptiga kiradigan leksik birliklar, insonning umumiy jismoniy holatiga oid tibbiyot terminlari, muayyan tana a'zosining holatiga tegishli bo‘lgan leksemalar, tor doiradagi tibbiy ixtisoslikning, shifokorning nomi kabilar faollashtiriladi. Qizig‘i shundaki, darslarimizda biz nafaqat rasmiy tibbiyotning,

balki xalq tabobatining ham o‘ziga xosliklari haqida suhbatlashamiz. Talabalarimiz AQSHning turli universitetlari vakillari (ya'ni, talaba, magistrant, tadqiqotchi, doktorant, o‘qituvchilari) bo‘lgani sababli, ular orasida bevosita shifokorlik amaliyoti bilan shug‘ullanuvchilar ham uchraydi. Bunday va boshqa yuqori bosqich talabalarini ayniqsa, “tabib”, “siloqchi”, “giyoh”, “damlama”, “dorivor o‘simlik” singari xalq tilida uchraydigan so‘z va iboralar qiziqtiradi.

Shu bilan birga, xorijiy talabalar o‘zbek tilining evfemizmlarga boy ekanini bilgan holda aynan evfemistik qo‘llanishlarni o‘rganishni xohlaydilar va bu borada ularda ko‘pgina savollar tug‘iladi. Ayniqsa, inglizcha evfemizmlarning o‘zbekcha muqobillari katta qiziqish uyg‘otadi. Ma'lumki, evfemizm ko‘proq lingvistik tushuncha emas, balki madaniy tushunchadir [<https://languagereal.ru/post/96>]. Shuning uchun uni aynan tarjima qilish mumkin emas. Bunday hollarda biz albatta manbalarga murojaat qilib, ikki tildagi muqobil variantlarni topishga harakat qilamiz. Darslar davomida tibbiyotga aloqador bo‘lgan tushunchalarning evfemistik qo‘llanishiga doir quyidagi misollarni keltiramiz:

“Keksa” ma'nosidagi “yoshi bir joyga borib qoldi” yoki “endi olma bilan o‘rik bo‘larmidi” kabi birikmalarning muqobili sifatida “mature (yetuk)”, “senior (katta)”, “advanced in years (tajribali yoki yoshi katta)” kabi variantlar taklif qilinadi. Insonning jismoniy nuqsonlarini anglatuvchi “ko‘r” (blind), nogiron (invalid), semiz (fat), aqldan ozgan (mad) kabi birliklarning o‘rniga “ko‘zi ojiz” (unseeing - ko‘rmaydigan); handicapped (aqliy yoki jismoniy nuqsonga ega bo‘lgan, imkoniyati cheklangan odam), ortiqcha vaznli odam (overweight), ruhiy kasal (mentally sick) kabi evfemik ifodalardan foydalaniladi. Shuningdek, tana a'zolari, homiladorlik, o‘lim bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa ko‘pgina evfemizmlar mashg‘ulot davomida bahslarga sabab bo‘ladi. Aytish joizki, AQSHning turli shtatlaridan kelgan talabalar tibbiyot yoki boshqa soha bilan bog‘liq bo‘lgan, lekin lug‘atlarda uchramaydigan o‘ziga xos, spetsifik evfemik ifodalarni bilishlari, ularni qo‘llashlari mumkin. Bu esa soha lingvistikasini qiyoslab o‘rganish bo‘yicha yangidan-yangi tadqiqotlarni olib borishga turtki bo‘ladigan holatdir.

Tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasi borasida AQSH ta'lim tizidagi e'tiborga loyiq bo‘lgan yana bir jihatga qisqacha to‘xtalamiz. Nyu-York, Los-Anjeles, San-Fransisko, Denver, Orlando, San-Diego kabi shaharlardagi universitetlar qoshida, sog‘liqni saqlash sohasida tadqiqotlar olib boruvchi yirik markazlar qoshida “Medical English” (“Shifokorlar uchun ingliz tili”) deb nomlangan maxsus kurslar tashkil qilingan [<https://extension.ucsd.edu/International-Programs/Medical-English-4-week>]. Bunday kurslarning maqsadi ingliz tilini o‘rganayotgan shifokor va bo‘lajak shifokorlarga mutaxassislik tilini maqsadli va tizimli o‘rgatish, aynan tibbiyot tizimida qo‘llaniladigan o‘ziga xos so‘z va iboralarni, evfemizmlarni, tibbiy terminologiyani o‘rgatish, shifoxona yoki klinik sharoitda inglizabon bemorlar hamda hamkasblar bilan muloqot qilish ko‘nikmalarini yaxshilashdir. Yuzma-yuz o‘tkaziladigan yoki onlayn tarzda tashkil etiladigan bu mashg‘ulotlarda maxsus audio-videomateriallardan, qo‘llanmalardan foydalaniladi [Ewa Donesch-Jezo, 2014: 72] Taklif etilayotgan mavzular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- AQSH sog‘liqni saqlash tizimi;
- bemor bilan muloqot ko‘nikmalari;

- inson anatomiyasi va fiziologiyasi;
- anamnez olish jarayoni;
- jarohatlar va shoshilinch tibbiy yordam;
- diagnostika va terapevtik muolajalar;
- taqdimot ko'nikmalarini rivojlantirish va hokazo.

Fikrimizcha, bizning yurtimizda ham shu kabi kurslar tashkil etilsa, ularda o'zbek va boshqa tillarda aynan tibbiyot xodimlariga dars berilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Zero, O'zbekisonga kun sayin ko'plab mutaxassislar tashrif buyurmoqdalar, ular o'zaro kasbiy hamkorlik doirasida, malaka oshirish maqsadida, yangi qo'shma tibbiyot muassasalarini barpo etish maqsadida kelmoqdalar. Bu yo'nalishdagi ishlarni rivojlantirib borish uchun turli xalqaro konferensiyalar o'tkazish, ularda fikr almashinish, xorijiy hamkasblar bilan tajriba almashinish kabi ishlar ham tilshunoslik, ham tibbiyot sohalari rivojiga katta hissa qo'shadi deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Палютина З.Р. Медицинская лингвистика как новое научное направление: проблемы становления и развития// Медицинский вестник Башкортостана. Том 8. № 3. 2013. – С.104.
2. N. Azimova, Uzbek: An Elementary Textbook, Georgetown University Press, 2010.
3. Как обойти грубое или "непристойное" выражение? Эвфемизмы в английском языке. <https://languagereal.ru/post/96>
4. <https://extension.ucsd.edu/International-Programs/Medical-English-4-week>
5. Ewa Donesch-Jezo. Teaching of vocabulary to medical students in ESP courses // LangLit. Vol 1. Issue-1. August, 2014. -P.72.

Ўзбек тилини тадқиқ этишда янгича ёндашувлар

Ражабов Дилшод Зарипович *

10.5281/zenodo.5685036

Аннотация. Мақолада жамиятимизда олиб борилаётган тил сиёсати доirasida Бухоро давлат университети жамоаси ва филология факультети билан бирга олиб борилган ютуқлар ҳақида изоҳ берилган.

Калит сўзлар: *лингвистика, лингвоперсонология, антропонимия, эвфемология, метафоралогия*

Айни кунларда ўзбек тилига берилаётган эътиборни, ўзбек тилшунослигининг бугунги ривожини олдинги йиллардан фарқлаш қийин эмас. Ўзбек тилшунослиги нишонланаётган тил байрамининг 32 йиллиги арафасида жуда кўп ютуқларга эришди. Ўзбек лингвистикасининг ранг-баранг соҳалари ривож топди. Жаҳонда XX асрнинг сўнгги чорагида содир бўлган глобал ўзгаришлар бошқа фанларда бўлгани сингари дунё тилшунослигида ҳам истиқболли илмий қарашлар, ғоялар ва ёндашувларга эга бўлган янги фанларнинг пайдо бўлишига ва тараққий этишига сабабчи

* Бухоро давлат университети доценти, ф.ф.д (DSc)

МУНДАРИЖА

Rasmiy ochilish. Tabriklar		
<i>Hamidov O.H.</i>	<i>Rasmiy ochilish</i>	6
<i>Inoyatov A.Sh.</i>	<i>Tibbiyot va til mushtarakligi</i>	8
<i>Daminov M.I.</i>	<i>Til va madaniyat</i>	9
<i>Qahhorov O.S.</i>	<i>Davlat tili - millatning tirik nafasi</i>	10
<i>Xuseynova A.A.</i>	<i>Soha lingvistikasini rivojlantirish – davr talabi</i>	11
<i>Aslonova E.S.</i>	<i>Государственный язык – неотъемлемая часть духовной национальной культуры государства</i>	12
Yalpi majlis ma’ruzalari		
<i>Mengliyev B.R.</i>	<i>Tilshunoslik samara bersin.</i>	15
<i>Abuzalova M.Q.</i>	<i>Lingvistika va tibbiyot hamkorligi ijtimoiy zarurat sifatida</i>	17
<i>Чудакова В.П.</i>	<i>Психология пациента и этика врача</i>	22
<i>Ixtiyarova G.A.</i>	<i>Ginekologik kasallikni ifodalovchi tibbiy terminlar talqini</i>	25
<i>Мўратбек В.Қ.</i>	<i>Professor Q.Jўbanov уеҗбектериндеги сөзтаһым неғиздері (Q.Jўbanov сөзтаһымындағ ы лексикология мәселеһері)</i>	27
<i>Adilova S.A.</i>	<i>Tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasi (AQSHdagi ayrim universitetlar misolida)</i>	36
<i>Rajabov D.Z.</i>	<i>O'zbek tilini tadqiq etishda yangicha yondashuvlar</i>	40
1-sho'ba. Tilshunoslikda til, shaxs, jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari va innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish istiqbollari		
<i>Ahmedov B.Y.</i>	<i>Rus va o'zbek tillarida so'zlarning o'zaro tobe bog'lanishi: boshqaruv kategoriyasi</i>	42
<i>Akhmedov A.R. Po'latova S.M.</i>	<i>O'zbek shevalarini lingvo-geografik xaritalashtirish</i>	46
<i>Adizova N.I.</i>	<i>Leksik birliklarning milliy o'zlik ruhini ifodalashdagi roli (Erkin Vohidov dostonlari asosida)</i>	50
<i>Elova D.Q.</i>	<i>O'zbek tili milliy korpusi uchun so'zlashuv uslubiga xos so'zlarni teglash masalasig oid</i>	55
<i>Fayazova D.S.</i>	<i>Methodological approach in teaching process</i>	61
<i>Fayazova D.S. Shirinboyeva B.M.</i>	<i>Empowering languageskills through modern methods</i>	65
<i>Jo'rayeva D.R. Qo'shayeva N.E.</i>	<i>O'quvchilar va aholi imloviy savodxonligini rivojlantirishning dolzarb masalalari</i>	68
<i>Kurbonov A.M.</i>	<i>Tasks of effective use of the uzbek language</i>	71
<i>Mengliyev B.R. Hamroyeva Sh.M. Elova D.Q.</i>	<i>Qirg'iz va yoqut tili avtomatik morfoligik tahlil vositalari tajribasidan</i>	75
<i>Muxtorov E.M.</i>	<i>Vrach kasbiy mahorati tuzilmasida kommunikativ kompetentlikning o'rni</i>	79
<i>Мўратбек Б.Қ. Саламат Э.С.</i>	<i>Этнолингвистика – этностық болмысты ұлттық тiл арқылы танып бiлу(Аймақтық лексика неғизінде). Ethnolinguistics- knowledge of ethnic identity through the national language (based on regional vocabulary).</i>	84
<i>Orifjonova F. Orifjonova M.</i>	<i>Critically discussing student teachers' ideas</i>	88

<i>Ortiqova G. H.</i>	<i>Harakat tarzi shakllari va nutq</i>	93
<i>Saduaqas N.A.</i> <i>Ibragimov T.A.</i>	<i>Qazaq tilindegi dybyys saykestigi turaly</i>	97
<i>Sayfullayeva R.R.</i> <i>Abuzalova M.Q.</i>	<i>Til – millat ma'naviyati va madaniyati takomilining bosh masalasi</i>	102
<i>Tosheva D.A.</i>	<i>The use of examples of folklore in the description of the person</i>	104
<i>To'yeva Z.N.</i>	<i>Bayon –o'quvchining yozma nutqini tartibga solish vositasi</i>	111
<i>Salomova M.Z.</i>	<i>The role of teaching speaking through technology</i>	116
<i>Shoimqulova M.Sh.</i>	<i>The integration of technology into language teaching</i>	121
<i>Sharipova F. N.</i>	<i>Integrating technology in teaching listening skills</i>	125
2-sho'ba. O'zbek tili tibbiyot leksikografiyasi va terminologiyasini rivojlantirish ijtimoiy zaruriyat sifatida		
<i>Nazarova S. A.</i>	<i>So'z birikmasi – tibbiy atamalar “bunyodkori”</i>	131
<i>Nazarova D.G.</i>	<i>Lexicographic problems of the uzbek language</i>	136
<i>Rajabov D.Z.</i>	<i>Tibbiy birliklarning elektron lug'atlari xususida</i>	139
<i>Sobirova D.R.</i>	<i>Qisqalik – samarali tibbiy reklama yaratishning muhim omili</i>	141
<i>Toirov G.I.</i>	<i>Shifokor nutqining lingvistik xususiyatlari</i>	146
<i>To'rayeva Sh.</i>	<i>So'z birikmasi tibbiy terminlar tizimida</i>	150
<i>Xamidova G.Y.</i>	<i>Особенности преподавания медицинской терминологии на уроках русского языка как иностранного</i>	153
<i>Xojiyeva M. Y.</i>	<i>Shaxsni tavsiflovchi so'z birikmalarining tibbiyotda qo'llanilishi</i>	157
<i>Yokubova Sh. Y.</i>	<i>Tibbiy matnlarda obyektli birikmalarning voqelanishi</i>	161
<i>Yuldasheva D.N.</i> <i>Chullieva G.T.</i>	<i>Тонина и тон звука как медицинский эфемизм</i>	164
<i>Navro'zova M.G'.</i>	<i>Tibbiy birliklar tadqiqi</i>	172
3-sho'ba. Tibbiyot ta'limida lingvokulturologiya va psixolingvistikaning ahamiyati hamda dolzarbligi		
<i>Ahmadova U.Sh.</i> <i>Bozorova G.Z.</i> <i>Mirjonov N.N.</i>	<i>Tibbiyot sohasida perifrazarlar</i>	174
<i>Абдуллина А.Б.</i>	<i>Мұқағали Мақатаев әңгімелеріндегі психологизм</i> <i>Psychologism in the stories of mukagali Makatayev</i>	179
<i>Adizova Nigora</i> <i>Adizova Nodira</i>	<i>Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari</i>	182
<i>Gafurova N.T.</i> <i>Hikmatov N.I.</i>	<i>Значение языка в развитии высшего образования</i>	185
<i>G'aybullayeva N.I.</i>	<i>Tibbiy lingvistik birliklar platformasining amaliy ahamiyati</i>	190
<i>Hayitov Sh.A.</i>	<i>Alisher Navoiy tib ilmi va tabiqlar haqida</i>	195
<i>Haydarova N.A.</i>	<i>The importance of metaphors usage in medical discourse</i>	200
<i>Jumayeva M.</i>	<i>O'zbek xalq maqollarida tibbiy birliklarning qo'llanilishi</i>	204
<i>Kobilova F.T.</i>	<i>The problems of research on methods of foreign filology teaching with innovative approach</i>	207
<i>Raximov M. M.</i>	<i>Linguotherapy as the method of treatment</i>	211
<i>Xalikova M.X.</i> <i>Teshayeva M.Sh.</i>	<i>Shoshiyning tibbiyot ilmiga bag'ishlangan “qonuni bositiy” asarida mavjud ayrim tibbiy atamalarning lingvistik tahlili</i>	214
<i>Niyozova M.F.</i>	<i>Davriy nashrlarda tibbiyotga oid tasviriy vositalarning</i>	218

	<i>qo'llanilishi</i>	
4-sho'ba. Tibbiy birliklarning lingvopoetik tadqiqi		
<i>Yusupova D.Y.</i>	<i>Tilshunoslikda evfemizm hodisasi talqini (H.Xudoyberdiyeva she'rlari asosida)</i>	222
<i>Қалиев Е.М.</i>	<i>«Ант» драмалық дастанының тарихи және фольклорлық негізі Historical and folklore basis of the dramatic saga "The Oath"</i>	228
<i>Yuldasheva M.M.</i>	<i>Tibbiy pedagogik yo'nalish talabalarida milliy an'analar asosida bag'rikenglikni rivojlantirish</i>	232
5-sho'ba. Amaliy filologiyani rivojlantirish - davr talabi		
<i>Ashurbayeva R.Q.</i>	<i>Yosh avlodda tibbiy madaniyatni rivojlantirishda ona tili fanining ahamiyati</i>	237
<i>Istamova S. I.</i>	<i>Taqlid so'zlarning tibbiyotda qo'llanilishi</i>	241
<i>Qobilova A.B.</i>	<i>O'zbek va ingliz tili tibbiy perifrazalarining kognitiv-morfologik xususiyatlari</i>	245
<i>Toshtemirova S.</i>	<i>Tibbiyot lingvistikasi: vujudga kelishi, dolzarbligi, maqsad va vazifalari</i>	248